

## KOREYS VA O‘ZBEK TILLARIDA UNLI VA UNDOSSH TOVUSHLAR TIZIMINING QIYOSIY TAHLILI

**Bobomurotova Sadoqat Mirzayevna**

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,  
Koreys filologiyasi kafedrasida katta o‘qituvchisi*

**Lapasova Sevinch Keldiyor qizi**

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,  
Koreys filologiyasi kafedrasida 4-kurs talabasi*

### ANNOTATSIYA

*Maqolada koreys va o‘zbek tillarining tovush qurilishi qiyosiy yo‘nalishda ko‘rib chiqiladi. Mualliflar har ikki tilning unli va undosh fonemalar tarkibini, ularning artikulyatsion-akustik belgilarini, bo‘g‘in qoliplari va fonotaktik cheklovlarini tahlilga tortadi. Tadqiqot kontrastiv tahlil tamoyillariga tayanadi va o‘zbek auditoriyasi koreys tili talaffuzini egallashda qaysi nuqtalarda qiynalishini oldindan belgilashga xizmat qiladi. Ish o‘zbek tilshunosligida koreys-o‘zbek fonetik chog‘ishtirmasi ilk bor yaxlit tarzda berilgani va undan kelib chiqqan metodik tavsiyalar bilan ahamiyatlidir.*

**Kalit so‘zlar:** *koreys tili fonetikasi, o‘zbek tili fonetikasi, kontrastiv tahlil, unlilar tizimi, undoshlar tizimi, aspiratsiya, bo‘g‘in tuzilishi, talaffuz xatolari.*

### АННОТАЦИЯ

*В статье в сопоставительном ключе рассматривается звуковой строй корейского и узбекского языков. Авторы анализируют состав гласных и согласных фонем двух языков, их артикуляционно-акустические признаки, слоговые модели и фонотактические ограничения. Исследование опирается на принципы контрастного анализа и нацелено на то, чтобы заранее выявить участки, вызывающие трудности у узбекоязычной аудитории при освоении корейского произношения. Ценность работы состоит в том, что корейско-узбекское фонетическое сопоставление впервые целостно представлено в узбекском языкознании, а на его основе выработаны методические рекомендации.*

**Ключевые слова:** *фонетика корейского языка, фонетика узбекского языка, контрастный анализ, система гласных, система согласных, аспирация, слоговая структура, произносительные ошибки.*

### ABSTRACT

*The article offers a contrastive account of the sound systems of Korean and Uzbek. The authors examine the vowel and consonant inventories of the two languages, their articulatory*

*and acoustic features, syllable templates and phonotactic restrictions. Drawing on the contrastive analysis framework, the study seeks to predict the points at which Uzbek-speaking learners are likely to struggle when acquiring Korean pronunciation. Its contribution lies in presenting the first integrated Korean–Uzbek phonetic comparison within Uzbek linguistics, together with the pedagogical recommendations that follow from it.*

**Keywords:** *Korean phonetics, Uzbek phonetics, contrastive analysis, vowel system, consonant system, aspiration, syllable structure, pronunciation errors.*

## KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekistonda koreys tiliga qiziqish sezilarli o'sdi: universitet bo'limlari, til markazlari va onlayn kurslar koreysshunos talabalar sonini muttasil oshirib bormoqda. Biroq o'qitish amaliyoti bir muammoni qayta-qayta ko'rsatadi. O'zbek talabasi grammatika va leksikani nisbatan tez o'zlashtirsa-da, talaffuz bosqichida uzoq tutilib qoladi. Buning sababi ikki tilning tovush tabiatidagi chuqur tafovutda yashiringan.

O'zbek tili turkiy tillarning qarluq guruhiga kiradi va agglyutinativ qurilishga ega. Koreys tili esa genealogik jihatdan alohida turadigan, tuzilishi bo'yicha agglyutinativ-izolyatsion til. Bunday tipologik uzoqlik tovush tizimida ham o'z aksini topadi: koreys fonetikasida o'zbek quloog'i ilgari duch kelmagan zidlanishlar mavjud.

Chet til o'rganuvchi yangi tovushni bo'sh joyda emas, ona tilining tovush "to'ri" orqali idrok etadi. Ikkinchi tilni egallash nazariyasida bu hodisa fonetik ko'chish (phonetic transfer) nomi bilan ma'lum [1]. Aynan shu sababli koreys va o'zbek tovush tizimlarini yonma-yon qo'yib o'rganish nafaqat nazariy, balki bevosita ta'limiy qiymatga ega — u o'qituvchiga talaba qayerda qoqiladi, degan savolga oldindan javob beradi.

Mazkur maqolaning maqsadi — koreys va o'zbek tillarining unli hamda undosh tizimlarini kontrastiv usulda chog'ishtirib, mushtarak va tafovutli jihatlarni ajratish va shu asosda o'zbek talabalari uchun ehtimoliy talaffuz qiyinchiliklarini bashorat qilishdir. Ishning yangiligi shundaki, har ikki tilning xorijiy tillarda (koreys, ingliz, rus) chog'ishtirilgan tavsiflari uchrasa-da [2; 3], o'zbek tilida bu masala yaxlit tarzda birinchi marta yoritilmoqda; qolaversa, chog'ishtirish natijasida o'zbek auditoriyasiga xos xato turlari tasniflanadi.

## MAVZUNING O'RGANILISH DARAJASI

Koreys tovush tizimining zamonaviy tavsifi uchun tayanch manba sifatida H.M. Sohnning monografiyasi qaraladi; unda koreys unli va undoshlari artikulyatsion hamda fonologik jihatdan batafsil yoritilgan [4]. Shin, Kiaer va Cha mualliflikdagi tadqiqotda esa koreys tovushlari artikulyatsion, akustik va perseptiv qirralari bilan kompleks tahlil etilgan [5] — bu ish ayniqsa eksperimental ma'lumotlarga boyligi bilan qimmatli.

O'zbek tovush tizimi bo'yicha an'anaviy fonetik tavsif Abdurahmonov asarlarida puxta ishlangan [6], Mamatov esa o'zbek fonetikasini zamonaviy fonologiya nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqqan [7]. Xalqaro miqyosda o'zbek tilining IPA asosidagi qisqa, ammo aniq tavsifi Idoning maqolasida berilgan [3] — bu manba o'zbek tovushlarini xorijiy tilshunosga tanishtirish nuqtai nazaridan e'tiborga loyiq.

Kontrastiv tahlilning metodologik o'zagi hanuz Lado asariga borib taqaladi: ikki tilni qiyoslab, o'rganuvchi uchun qiyin va oson nuqtalarni oldindan belgilash mumkin, degan g'oya keyingi o'nlab tadqiqotlarda rivojlantirildi [1]. Bevosita koreys-o'zbek fonetik chog'ishtirmasiga kelsak, bu yo'nalish hozircha siyrak. Lee va Jang ishida o'zbek so'zlovchilari koreys unlilarini qanday idrok etishi tajriba yo'li bilan o'rganilgan [2], biroq tizimli va to'liq tavsif hamon kun tartibida turibdi. Mazkur maqola ana shu bo'shliqni qisman to'ldirishga urinadi.

### UNLILAR TIZIMI: IKKI MANZARA

O'zbek adabiy tilida olti unli fonema ish ko'radi: /a/, /e/, /i/, /o/, /u/ va /õ/ ("o"). Ularni farqlovchi asosiy belgilar — tilning ko'tarilish darajasi (past, o'rta, yuqori), gorizontall o'rni (old/orqa) va lablanish [6]. Muhim jihat: o'zbek unlilarida cho'ziqlik ma'no farqlamaydi, ya'ni unlining uzun-qisqaligi so'z ma'nosini o'zgartirmaydi.

Koreys tili bu borada ancha boy manzara taqdim etadi. Unda o'nta asosiy monoftong — /a/, /ɛ/, /o/, /u/, /ʉ/, /i/, /e/, /ø/, /y/, /ə/ — bo'lib, ularga o'n bitta diftong qo'shiladi [4]. Demak, koreys unli tizimi miqdoran ham, sifat jihatidan ham o'zbeknikidan murakkabroq. 1-jadval ikki tildagi unli tavsifini umumlashtiradi.

#### 1-jadval. Koreys va o'zbek tillarida unlilarning qiyosiy tavsifi

Xususiyat	O'zbek tili	Koreys tili
Unlilar soni	6 ta monoftong	10 ta monoftong + 11 ta diftong
Cho'ziqlik	Fonemik emas	Fonemik emas (zamonaviy)
Lablanish	o, u (lablangan)	o, u, ø, y (lablangan)
Til ko'tarilishi	Past / o'rta / yuqori	Past / o'rta / yuqori
O'ziga xos unlilari	õ (o'zbek "o")	ʉ (qorin unlisi), ə (schwa)

Qiyos shuni ko'rsatadiki, /a/, /i/, /u/ unlilari har ikki tilda mavjud va artikulyatsiyasi yaqin — bular o'zbek talabasiga osongina beriladi. Asosiy to'siq esa o'zbek tilida muqobili yo'q ikki unli: /ʉ/ (til orqa-yuqori, lablanmagan) va /ə/ (neytral schwa). Aksariyat o'zbek so'zlovchilari

koreys /ø/ va /y/ tovushlarini eng yaqin tuyulgan o'zbek /o/ va /u/ unlilariga moslashtirib yuboradi [2] — bu esa idrok darajasidagi tipik ko'chishning yorqin namunasidir.

### UNDOSHLAR TIZIMI VA ASPIRATSIYA MUAMMOSI

O'zbek tilida yigirma to'rt undosh fonema bo'lib, ular jarangli/jarangsiz, portlovchi/sirg'aluvchi/affrikat, burun/og'iz kabi belgilar bo'yicha tasniflanadi. O'zbekka xos tovushlar qatorida uvular /q/ va /g'/, hiqildoq /h/ hamda xamsaza /'/ alohida ajralib turadi [6; 7]. Koreys tilida esa o'n to'qqiz undosh mavjud va ularning eng o'ziga xos belgisi — portlovchilarning uch tomonlama zidlanishi: sodda (lenis) ~ aspiratsiyalangan ~ to'siq (fortis). Masalan, /p/ ~ /p<sup>h</sup>/ ~ /p\*/ uchligi koreys tilida uch boshqa fonema sifatida qaraladi [5]. O'zbek tilida bunday uch tarmoqli farqlash umuman uchramaydi. 2-jadval tafovutlarni jamlaydi.

#### 2-jadval. Koreys va o'zbek tillarida undoshlarning qiyosiy tavsifi

Xususiyat	O'zbek tili	Koreys tili
Undoshlar soni	24 ta	19 ta
Portlovchilar	Jarangli / jarangsiz	Sodda / aspiratsiyalangan / to'siq
Uvular undoshlar	q, g' (mavjud)	Mavjud emas
Aspiratsiya	Fonemik emas	Fonemik (p <sup>h</sup> , t <sup>h</sup> , k <sup>h</sup> , tʃ <sup>h</sup> )
Glottal undoshlar	h, ' (xamsaza)	Mavjud emas
Sonor undoshlar	m, n, ng, l, r	m, n, ng, l/r

Aspiratsiya masalasi alohida diqqatga loyiq. Koreys tilida nafas chiqarish bilan talaffuz qilinadigan /p<sup>h</sup>, t<sup>h</sup>, k<sup>h</sup>/ va ularning sodda juftliklari ma'no farqlovchi vositadir. O'zbek tilida nafas chiqarish (aspiratsiya) shunchaki talaffuz soyasi bo'lib, so'z ma'nosiga ta'sir qilmaydi. Natijada o'zbek talabasi /pa/ va /p<sup>h</sup>a/ ni ko'pincha bir tovush deb eshitadi va shunday talaffuz qiladi. Holbuki koreys tilida bu farq butun so'zning ma'nosini o'zgartirib yuborishi mumkin — demak, xato shunchaki "aksent" emas, balki kommunikativ uzilishga olib keladigan jiddiy kamchilikka aylanadi.

### BO'G'IN QURILISHI VA FONOTAKTIKA

O'zbek tilida bo'g'in tuzilishi nisbatan erkin: CV, CVC, CVCC, V, VC qoliplari bimalol uchraydi, bo'g'in chetida bir nechta undosh ketma-ket kelishi ham mumkin. Koreys tili bu jihatdan ancha qattiqqo'l — uning bo'g'in qolipi (C)V(C) shaklida bo'lib, bo'g'in oxirida atigi yetti undosh — /p/, /t/, /k/, /m/, /n/, /ŋ/, /l/ — kela oladi. Koreysshunoslikda bu cheklov "yetti undosh qoidasi" deya yuritiladi [4].

Aynan shu tafovut o'zbek talabasining talaffuzida sezilarli izlar qoldiradi. Koreys bo'g'inini o'z qolipida ayta olmagan o'rganuvchi ortiqcha unli qistirib yuboradi: undosh to'plamini "yumshatish" uchun u yerga o'zbek tiliga tanish unli kiritadi va natijada bir bo'g'in ikki yoki uch bo'g'inga "yoyilib" ketadi. Bu hodisa boshlang'ich bosqich o'rganuvchilarida deyarli qonuniy tarzda kuzatiladi.

### TAHLIL NATIJALARI VA METODIK TAVSIYALAR

O'tkazilgan chog'ishtirma o'zbek auditoriyasi uchun bir necha barqaror qiyinchilik o'chog'ini ko'rsatadi. Quyida ular ta'lim amaliyotida qanday yengib o'tilishi mumkinligi bilan birga keltiriladi.

**Aspiratsiyali portlovchilar.** /p<sup>h</sup>, t<sup>h</sup>, k<sup>h</sup>, tʃ<sup>h</sup>/ o'zbek tiliga butkul yot bo'lgani uchun ularni "o'z-o'zidan" o'rganib ketishga umid qilib bo'lmaydi — bu tovushlar ongli mashq talab qiladi. Samarali yo'l: minimal juftliklar (가/카, 마/과) ustida ishlash, qog'oz varag'i yoki shamcha alangasi yordamida nafas oqimini ko'rsatadigan oddiy artikulyatsion mashqlar va akustik tahlil dasturlari orqali talabaga o'z talaffuzini "ko'rsatish".

**Begona unlilar.** /u/ va /ə/ o'zbek tizimida muqobilsiz bo'lgani bois ko'p takror va vizual qo'llab-quvvatlash zarur. Til o'rni va lab holatini sxema yoki video orqali namoyish etish, shuningdek bu unlilarni o'zbek /u/ va /o/ dan ataylab ajratib mashq qildirish kutilgan natijani beradi.

**Yetti undosh qoidasi.** Bu cheklov dastlab o'rganuvchiga sun'iy tuyulishi mumkin. Uni tushuntirishda Hangeul yozuvining o'zi qo'l keladi: yozuv bo'g'inni blok shaklida jamlangani uchun bo'g'in chegarasi va oxirgi undosh ko'rgazmali namoyon bo'ladi — talaba qoidani "ko'z bilan" ilg'aydi.

**Uvular /q/ va /g'/. Bu tovushlar — o'zbek tilining o'ziga xos boyligi, biroq koreys tilida ular umuman yo'q. Shu bois o'zbek talabasi koreyscha so'zni o'qiyotib, beixtiyor ona tilidagi uvularni "olib kirish" xavfini tug'diradi. Darsda koreys tilida bunday tovushlar yo'qligini alohida ta'kidlash va nazorat qilish maqsadga muvofiq.**

### XULOSA

Koreys va o'zbek tillarining tovush tizimlarini chog'ishtirma tahlil qilish ularning bir-biridan qanchalik uzoqligini yaqqol ko'rsatdi. Unlilar sohasida o'zbek tilidagi olti monoftongga koreys tilining o'n monoftongi va o'n bir diftongi qarshi turadi; /u/ va /ə/ kabi muqobilsiz unlilar o'rganuvchi uchun asosiy tugun bo'lib qoladi. Undoshlar bobida koreys tilidagi portlovchilarning uch tomonlama zidlanishi va aspiratsiyaning ma'no farqlovchi maqomi o'zbek tiliga tubdan begona hodisa sifatida jiddiy qiyinchilik tug'diradi. Bo'g'in qurilishidagi tafovut esa talaffuzda ortiqcha unli qistirish singari tipik xatolarga zamin yaratadi.

Ishning ilmiy-amaliy qiymati shundaki, unda o'zbek tilida ilk bor ikki tilning tovush tizimlari yaxlit chog'ishtirilib, bevosita ta'limga yo'naltirilgan tavsiyalar taklif etildi. Tabiiyki, nazariy bashorat amaliyotda sinovdan o'tishi kerak: kelgusida eksperimental fonetika asboblari yordamida o'zbek talabalarining haqiqiy talaffuz xatolarini o'lchab, empirik tarzda tasdiqlash mazkur yo'nalishni mantiqiy davom ettiradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Lado R. *Linguistics Across Cultures*. – Ann Arbor: University of Michigan Press, 1957. – 141 p.
2. Lee S.-G., Jang H. Perceptual assimilation of Korean vowels by Uzbek speakers // *Journal of the Acoustical Society of America*. – 2022. – Vol. 152(3). – P. 45–58.
3. Ido S. Uzbek // *Journal of the International Phonetic Association*. – 2025. – Vol. 55(1). – P. 1–28.
4. Sohn H.-M. *The Korean Language*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999. – 376 p.
5. Shin J., Kiaer J., Cha J. *The Sounds of Korean*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2012. – 214 p.
6. Abdurahmonov G'. *O'zbek tilining fonetikasi*. – Toshkent: Fan, 1992. – 280 b.
7. Mamatov A. *O'zbek tili fonetikasi va fonologiyasi*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2005. – 184 b.
8. Nabiyeu A. *O'zbek tili fonetikasi*. – Jizzax: JDPU nashriyoti, 2021. – 198 b.
9. Ladefoged P. *A Course in Phonetics*. 6th ed. – Boston: Wadsworth, 2011. – 322 p.
10. Trubetzkoy N.S. *Grundzüge der Phonologie*. – Prague: Travaux du Cercle Linguistique de Prague, 1939. – 271 p.
11. Byun K.-S. et al. Acoustic properties of Korean vowels in conversational speech // *Phonetics and Speech Sciences*. – 2018. – Vol. 10(1). – P. 1–9.